



ONA TILI TA'LIM TIZIMIDA OMONIMLARNI O'QITISH

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
talabasi*

Musurmonova Madina

Annotatsiya: Maqolada O'quvchilarning nutq boyligini oshirishda omonim so'zlarning o'rni, ulardan foydalanish va ona tili ta'lim tizimida omonimlarning o'qitilishi metodlar yordamida ochib berilgan tajriba-sinov darsining natijasi aks etgan.

Kalit so'zlar: Leksema, omonim, leksikon, nutqiy ko'nikma, kommunikativlik


Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlar yangidan – yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Texnologiyalarning taraqqiy etishi bu imkoniyatlarning rivojlanishini oshirmoqda. Ta'limning barcha sohalarida ro'y berayotgan bu islohatlar ona tili fanini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Bugungi kunda tilni o'qitish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Til o'quvchining kelajagini, salohiyatini ochib berishda muhim vosita ekanligi yosh avlod uchun sir emas. Barcha fanni o'zlashtirish uchun asos vazifasini ham aynan ona tili fani o'tamoqda. Shu sababli yaratilayotgan yosh avlod darsliklari barcha sohani qamrab olmoqda. Ona tili fani o'z imkoniyatlarini kengaytirgan holda o'quvchining fikrlashini, dunyoqarashini, yaratuvchanligini, hamkorlikda ishlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Yosh avlod darsliklar aynan shu jihatlari bilan oldingi darsliklardan ajralib turadi.

Sir emaski, ona tilini fan sifatida o'qitish murakkab faoliyat. Chunki tilning qurilishi, mazmun- mohiyatini anglash o'quvchiga biroz qiyinchilik yaratadi. Shu kabi muammolarni bartaraf etish maqsadida ko'plab islohatlar olib borilmoqda.



Jumladan, o'quvchilarda lingvistik ko'nikma bilan birgalikda, nutqiy ko'nikmalarning ham shakllantirilishi, lingvistik ko'nikmalarni spiralsimon o'zlashtirish bosqichlari buning isbotidir. Bu kabi islohotlar o'quvchi leksikonini boyitishga, tafakkur imkoniyatlarini, yaratuvchanlik qobiliyatini oshirishga qaratilgan. O'quvchi leksikonini boyitish haqida gap ketar ekan so'zning shakl va mazmuniga ko'ra turlaridan o'quvchi o'z nutqida erkin foydalana olishlari zarur. Chunki ushbu so'zlar nutqni boyitish bilan birgalikda fikrni izchil, tizimli shaklda bayon etilishini ta'minlaydi.

Ona tili fanini o'qitishda o'quvchi savodxonligini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Shu o'rinda o'quvchilar leksikonini boyitish masalasi ham bir o'rinda turadi. Malumki, leksik birliklar shakl va mazmuniga ko'ra turli guruhlariga bo'linadi.[1:222] Ba'zi so'zlarda mazmun yetakchi vazifa bajarsa, boshqalarda shakl ustunlik qiladi. Sinonim, antonim so'zlar so'zning mazmun tomoniga ko'ra ifodalansa, omonim so'zlarda shakl yetakchilik qiladi.



1-rasm: leksemaning shakl va mazmun jihatdan turlari.



Omonim soʻzlarni oʻqitish oʻquvchilarning soʻz boyligini boyitish bilan birgalikda, nutqiy mahoratni yuksaltirishda, ijodiy tafakkurni oshirishda, nutqiy qochirimlardan mohirlik bilan foydalanishga yordam beradi.[2:77] Aynan shu sababli shakldosh soʻzlarni kichik yoshdan oʻquvchilarga oʻrgatish ancha foydalibroq boʻladi. Chunki oʻquvchining yoshlikda oʻzlashtirgan bilimlari umri davomida unga hamroh boʻladi. Shakldosh soʻzlarni oʻrgatish bir muncha qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shakldosh soʻzlar koʻchma maʼnodagi soʻzlarga yaqin boʻlganligi uchun ham bunday muammo koʻplab uchraydi. Koʻchma maʼnodagi soʻzlar bir soʻzning bir-biriga yaqin oʻxshash maʼnolarda ifodalasa, shakldosh soʻzlar shaklan bir xil boʻlgan ikki yoki undan ortiq soʻzning bir-birdan farqli maʼnolarida ifodalaydi. Shunga koʻra shakldosh soʻzlarning aniq maʼnosi faqat kontekstdagina aniqlasha oladi. Masalan, 1. Dalada oʻtlab yurgan qoʻylarning soni bugun toʻrttaga koʻpaydi. 2. Qoʻlingdagi kitobni joyiga qoʻyib oyingga yordam ber, qizim.

Shakldosh soʻzlarni oʻqitish boʻyicha ilmiy – tadqiqot darsi: 5- sinf ona tili fanidan shakldosh soʻzlarni oʻqitish boʻyicha tajriba – sinov darsi olib borildi. Darsda 5- “A” sinf oʻquvchilaridan 20 nafari ishtirok etishdi. Oʻquvchilarni oʻzlashtirgan bilimlarini baholash maqsadida omonim soʻzlar ishtirok etgan test sinovi oʻtkazildi. Test 20 savoldan iborat boʻlib oʻquvchilar quyidagi natijalarni qayd etishdi.

Oʻquvchilar soni	20 savolga javob bergan oʻquvchilar	15-19 savolga javob bergan oʻquvchilar	10 – 14 savolga javob bergan oʻquvchilar	10 tadan kam savolga javob bergan oʻquvchilar
20	0	6	7	7



Soʻngra shakldosh soʻzlarni oʻqitish boʻyicha tajriba-sinov darsi oʻtkazildi. Dastlab, Shakldosh soʻzlar haqida nazariy mʼlumot berish quyidagi shaklda amalga oshirildi. Oʻqituvchi tomonida ikki oq qogʻoz oʻquvchilarga taqdim etildi. Ular har taraflama bir xil ekanligini koʻrsatib ulardan bu ikki qogʻozning farqli jihati bor yoki yoʻqligi haqida tarif berishi soʻraladi. Oʻquvchilar bu holatda tabiiyki ikkisini farqlashga qiynalishdi, hatto ikki qogʻozning farqini ham topa olishmadi. Soʻngra oʻqituvchi ulardan biriga siyoh tomizdirdi va oʻquvchilardan bu ikki oq qogʻozda yuz bergan oʻzgarish haqida savol berdi. Oʻquvchilar qogʻozdagi holatga oʻz fikrini aytgach oʻqituvchi omonim soʻzlarga toʻxtalib ularning ham shakli bir xil ammo, maʼnosi farqli ekanligi tushuntirib oʻtildi. Oʻquvchilar yana ham aniqroq tushunishlari uchun omonim soʻzlar rasmlarda ifodalanib ularning maʼnosidagi farqlar izohlab berildi.

Nazariy maʼlumotni mustahkamlash uchun quyidagi topshiriqlar bajarildi:

1- topshiriq. “Rasmlar soʻzlar” metodi. Berilgan rasmlarga diqqat qiling. Ular ifodalayotgan soʻzning maʼnosiga diqqat qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing. Ushbu topshiriqda oʻquvchilar oʻzlashtirgan lingvistik bilimlarini mustahkamlash bilan birgalikda, nutqiy vaziyatda shakldosh soʻzlardan foydalana olish koʻnikmasini ham shakllantiradilar.

2- topshiriq. Namunada berilganidek kichik matn tuzing. Matnda omonim soʻzlardan foydalaning.

Salimning xafaligini koʻrib dadasi unga yuz ming soʻm pul berdi va istagan oʻyinchogʻini sotib olishini aytdi. Salimning yuzida tabassum aks etdi. Sevinganidan dadasini mahkam quchdi.

3- topshiriq. “Dialog” metodi. Ushbu metodda oʻquvchilar omonim soʻzlar ishtirok etgan oʻzaro dialog tuzadilar. Dialog alifbo tartibida shakllantiriladi.



Ushubu metodda o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmasi bilan birgalikda, kommunikativlik qobiliyati ham shakllantiriladi.

Dars so'ngida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini baholash maqsadida qayta test sinovi o'tkazildi va quyidagi natijalar qayd etildi.

O'quvchilar soni	20 savolga javob bergan o'quvchilar	15-19 savolga javob bergan o'quvchilar	10 – 14 savolga javob bergan o'quvchilar	10 tadan kam savolga javob bergan o'quvchilar
20	5	8	5	2

Tajriba-sinov darsdan olingan xulosa shu bo'ldiki, o'quvchilarning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajasi 20% ga oshgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida) [Matn] : darslik / D.N. Yuldasheva .-Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. - 424 b.
2. B.To'xliyev. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent: 2006. 192b.